

BOSHLANG'ICH SINFI O'QUVCHILARIDA RIVOYA MATN YARATISH KO'NIKMASINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK VA PSIXOLINGVISTIK ASOSLARI

Baynazarova Jamilya Jolmurzaevna – assistent o'qituvchi

jamilabaynazarova6@gmail.com

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ И ПСИХОЛИНГВИСТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ФОРМИРОВАНИЯ НАВЫКА СОЗДАНИЯ УСТНОГО ТЕКСТА У УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

Байназарова Жамиля Жолмурзаевна – ассистент преподаватель

Нукусский государственный педагогический институт имени Ажинияза

PEDAGOGICAL AND PSYCHOLINGUISTIC FOUNDATIONS OF FORMING NARRATIVE TEXT CREATION SKILLS IN PRIMARY SCHOOL STUDENTS

Baynazarova Jamilya Jolmurzaevna – assistant teacher

Nukus State Pedagogical Institute named after Ajiniyaz

Tayanch so'zlar: matn, nutq, hikoya, rivoya, tadqiqot, rivojlanish, paydo bo'lish, tur, uslub.

Rezyume. Maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirish usullari, o'quvchilarda rivoya matn yozish ko'nikmalarini rivojlantirishda mazkur jarayonning pedagogik va psixolingvistik jihatlariga e'tibor qaratilgan. Shuningdek, buyuk olimlarning fikrlari asosida, rivoya matn yaratishda nutqiy kompetensiyalarni shakllantirish va rivojlantirish bo'yicha tavsiyalar berilgan.

Ключевые слова: текст, речь, рассказ, повествование, исследование, развитие, возникновение, тип, стиль.

Резюме. В данной статье рассматриваются методы развития языковых навыков у учащихся начальных классов, уделяется внимание педагогическим и психолингвистическим аспектам этого процесса в развитии навыков написания рассказов у учащихся. Опираясь на мнения известных ученых, даются рекомендации по развитию языковых навыков при написании рассказов.

Key words: text, speech, story, narrative, research, development, emergence, type, style.

Summary. The article focuses on methods for developing speech competencies of primary school students, the pedagogical and psycholinguistic aspects of this process in developing students' narrative writing skills. Also, based on the ideas of great scientists, recommendations are given for the formation and development of speech competencies in creating narrative texts.

Kirish. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqiy kompetensiyalari ustida ishlash ona tili ta'limining asosiy mazmunini tashkil etadi. Chunki ular shaxsning har tomonlama kamol topishi, jamiyatda muvaffaqiyatli faoliyat olib borishi, o'zining shaxsiy salohiyatini to'liq ro'yobga chiqarishi uchun fundamental asos vazifasini o'taydi. O'quvchining nutqi ustida ishlash esa yetarlicha murakkab jarayon bo'lib, uning talab darajasida bo'lishi o'quv dasturlari, ta'lim vositalari, metodlari, o'qituvchining kasbiy mahorati hamda o'ziga xos yondashuviga ko'p jihatdan bog'liq. Xususan, rivoya matn yozish ko'nikmasini shakllantirishda, eng avvalo, ushbu jarayonning pedagogik va psixolingvistik asoslariga tayanish juda muhim.

Ta'limning har qaysi bosqichida matnning istalgan turini yozishga o'rgatish ustida ishlanar ekan, bu jarayonda matnning o'ziga xos tili va uslubi, didaktik tamoyillar, o'quvchining yosh xususiyatlari hamda mavjud yondashuvlardan xabardor bo'lishning ahamiyati yuqori.

Adabiyotlar tahlili. Eng avvalo, rivoya matn ta'rif, unga xos bo'lgan tamoyillar xususida so'z yuritish maqsadga muvofiq. Mavjud manbalarda rivoya matnga berilgan ta'riflar turlicha bo'lib, ular har bir muallifning o'ziga xos yondashuvdan kelib chiqqan holda ishlab chiqilgan. Aksariyat hollarda ushbu matn turi hikoya rivoya matnga xos jihatlarni uchratish mumkin. Jumladan, A.Zunnunov "Hikoya shaxslar ishtirokida ifoda etilgan kichik voqea haqidagi rivoyatir" [1] deb hisoblagan bo'lsa, S.Dolimov qahramonning turmushidagi voqealar va uning ichki kechinmalari haqidagi hikoyani rivoya matn deb ta'riflagan [2].

G.Rahimova esa "Adabiy asarda voqelikni izchillik bilan so'zlab berish, bayon etish rivoya deyiladi" [3] mazmunidagi fikrni bildirgan.

"Voqea yoki bir-biri bilan uzviy bog'langan hodisa haqidagi hikoya rivoya deb ataladi" deya ta'rif beradi S.Ismatov [4].

Yuqoridagi ta'riflardan anglash mumkinki, A.Zunnunov hikoyaning rivoya usulida hosil bo'lishiga, ya'ni "so'zlab berish, aytib berish" ma'nosiga e'tibor qaratgan. Biz esa ilmiy izlanishlarimiz davomida rivoya matn yaratish jarayoni orqali nutqiy kompetensiyalarni shakllantirish va rivojlantirishni maqsad qilganmiz. Bu esa rivoya matnigagina xos bo'lgan jihatlarni inobatga olishni taqozo etadi.

Muhokama. Ona tili ta'limida yozma nutqqa doir ko'nikmalarni rivojlantirish, nazorat qilish maqsadida foydalaniladigan ta'lim vositasidir. Topshiriq sharti, yozma ishning asosiy mazmunini yaratishda hikoya qilish usuliga tayanilsa-da, o'quvchidan oxir oqibatda adabiyotning alohida janri bo'lgan hikoyani yaratish talab etilmaydi.

Metodik adabiyotlarda rivoya insholarda biror muddatda bo'lib o'tadigan u yoki bu hodisa haqida so'zlanishi ta'kidlanib, ularning umumiy sxemasi quyidagi tarzda bo'lishi aytilgan:

- 1) hodisaning boshlanishi;
- 2) hodisaning rivojlanishi;
- 3) hodisaning nihoyasi [5:80].

Bundan tashqari, rivoya-insho badiiy asar janri bo'lmish hikoyadan farqlanib, unda publitsistika janrlaridan biri bo'lgan ocherkka xos xususiyatlar ustunlik qiladi. Ocherkda publitsistik mulohazalarga urg'u qaratilsa, hikoyada bunday mulohazalar obrazlar vositasida bayon etilishi haqidagi fikrlar ham mavjud bo'lib, ular rivoya matnning aynan badiiy uslubda yaratilishi bilan bog'liq talabning ustuvorligini inkor etadi.

A.Dadajonov monologik nutq tiplari haqida gapirar ekan, nutqni uchta asosiy turga ajratadi: tasvir, rivoya va

muhokama yuritish. Tadqiqotchi o'z maqolasida rivoyaga quyidagicha ta'rif beradi: "Rivoya bu – o'z vaqtida sodir bo'lgan voqea, harakat, hodisa haqida hikoya, xabardir" [6:36]. Shuningdek, bunday tipdagi matnlarda odatda harakatning joyi va vaqti, sodir bo'layotgan voqealarning xronologik ketma-ketligi aniq bo'lishi lozimligi, o'tgan zamonda mukammal fe'llarni ishlatish bilan tasniflanishi haqida fikr bildirilgan.

Q.Karbayeva ilmiy mehnatida o'quvchilarning bog'lanishli nutq malakalarini oshirishda eng muhim didaktik vosita hisoblangan inshoning ahamiyati haqida bir qancha fikrlar bildirib, rivoya-insho uning janriga ko'ra turi sifatida tasniflaydi [7:16].

Keltirilgan ma'lumotlar asosida rivoya matn va hikoya matnining o'zaro farqli jihatlarini quyidagilarda ko'rish mumkin:

Xususi-yatlar	Hikoya matni	Rivoya matn
Qamrov doirasi	Tor tushuncha, badiiy asar janri sanaladi.	Keng tushuncha, har qanday voqealar ketma-ketligini bayon qiluvchi matn. Badiiy, ilmiy, ommabop bo'lishi mumkin.
Asosiy maqsad	o'quvchini qiziqitish, zavqlantirish, his tuyg'ularni uyg'otish, ma'lum bir axloqiy yoki hayotiy saboq berish	Voqealarni izchil bayon qilish, ma'lumot berish, tushuntirish yoki ta'sir etish
Tuzilishi	Ko'pincha odatdagi syujetga ega: kirish, rivojlanish, kulminatsiya, yechim, xotima. Markazda qahramonlar va ular bilan bog'liq voqealar rivoji bo'ladi.	Voqealar ketma-ketligi muhim. Syujet murakkabligi va qahramonlarga e'tibor har xil bo'lishi mumkin. Ba'zi o'rinlarda shaxsiy kechinmalarining ifodalanishiga ham yo'l qo'yiladi.
Mazmuni	Ko'pincha to'qima, badiiy vositalarga boy. Voqealarning boshlanish va tugash nuqtalari bor bo'lib, ular, odatda, bir butun g'oya atrofida birlashadi.	Voqealar haqiqiy yoki to'qima bo'lishi mumkin. Faktlar, ma'lumotlar bilan boyitilishi maqsadga muvofiq. Shaxsiy tajribalar, xotiralar, tarixiy voqealar haqida so'z boradi.
Til xususiyati	Ko'proq badiiy uslub, obrazli ifodalar, his tuyg'ularni aks ettiruvchi so'zlar, ta'sirchanlik. Ustunlik qiladi.	Uslub kontekstga qarab o'zgaradi (badiiy, ilmiy ommabop, publitsistik). Aniq, tushunarli, izchil bayon.
Didaktik maqsad	Ijodiy fikrlashni, tasavvurni, badiiy uslubni shakllantirish, hissiyotlarni ifodalash.	Fikrni izchil va mantiqiy bayon etish, savodxonlikni, kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirish.

Natijalar. Demak, rivoya matn keng tushuncha bo'lib, voqealar ketma-ketligini bayon etuvchi har qanday matnni o'z ichiga oladi. Hikoya matn esa – rivoya matnning badiiy, to'qima syujetli va ma'lum bir g'oyani yetkazishga

qaratilgan kichik bir turidir. Ya'ni, har bir hikoya matn rivoya matn bo'la oladi, ammo har qanday rivoya matn hikoya matn emas. Masalan, yangiliklar reportaji rivoya matn, lekin u hikoya matn emas.

Shu kungacha umumta'lim maktablarida o'quvchilarni rivoya matn yaratishga o'rgatishda qanday pedagogik tamoyillariga asoslanish masalasi bir qancha tadqiqotlarning obyektiga aylangan. Eng avvalo, matn yaratish ko'nikmasi xususida so'z borar ekan, aksariyat manbalarda u o'quvchining og'zaki va yozma nutqini rivojlantirishda foydalaniladigan eng faol metodik usul sifatida tilga olinadi. Rivoya matn ham umumiy ma'noda aytganimizda, ayni shu nutqiy kompetensiyalarni shakllantirishga xizmat qilar ekan, uni yaratishning pedagogik tamoyillari har qanday matn turini yaratishning umumiy tamoyillari asosida ishlab chiqiladi, desak adashmaymiz. Ya'ni ushbu jarayonning umumiyliklari quyidagi jihatlarida namoyon bo'ladi:

1. Tushunilganlik, fahmlanganlik.
2. Maqsadga yo'naltirilganlik, asoslanganlik.
3. Nutq vaziyati talablariga muvofiqlik.
4. Bog'langanlik, muntazamlilik va izchillik.

O'rganishlarimiz asosida aytishimiz mumkinki, nazariy va metodik adabiyotlarda rivoya matn matnning alohida turi sifatida tilga olingan ekan, demak, manbalarda pedagogik nuqtayi nazardan uni yaratish bilan bog'liq turli yondashuv va tavsiyalar ham yetarlicha ishlab chiqilgan.

Mazkur moqalamizda rivoya matn yaratish jarayonida shakllantirilishi lozim bo'lgan malakalar xususiy va umumiy nutqiy malakalar kabi 2 turga ajratiladi. Bunda xususiy nutqiy malakalar aynan rivoya matnning o'ziga xos jihatlariga oid bo'lib, rivoya qilishning til bilan bog'liq tomonlari (zamon ifodasi, to'liqsiz fe'llarning qo'llanishi, shaxs-son shakli va b.) inobatga olinadi. Umumiy nutqiy malakalar esa matnning mazmunini shakllantirishga doir: mazmunni ochib berish, asosiy fikrni ifoda etish va xulosa chiqarish kabilarni yoza olishdan iboratdir. Rivoya matnni boshqa matn turlaridan farqlash, dars jarayonida ayni shu sifatlarga o'quvchining e'tiborini qaratish maqsadli harakatni amalga oshirish uchun juda zarur hisoblanadi. Mazkur jarayonda o'quvchilarga matn turlarini o'zaro taqqoslash va farqlash bilan bog'liq topshiriqlarni bajartirish ham samarali usullardan biridir.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, matn yaratish ko'nikmasini shakllantirish o'quvchining har tomonlama rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. Xususan, matn yaratish pedagogik va psixologik jihatdan:

og'zaki va yozma nutqiy ko'nikmalar va lug'at boyligini oshirish, nutqning izchilligi, mantiqiylik va ifodaliligini yaxshilashga;

tasavvur va fantaziyani rivojlantirish, noodatiy va original g'oyalarni yaratishga undash, badiiy didni shakllantirishga;

voqealar ketma-ketligini qurishni o'rganish, sabab-oqibat bog'liqliklarini tushunish, syujet chiziqlarini rivojlantirish qobiliyatini shakllantirishga;

o'quv jarayoniga qiziqishni oshirish, bilimlarni amaliy qo'llash, mustaqil ishlashga bo'lgan ishtiyoqni paydo qilishga;

fikrlarni erkin bayon etish, shu orqali o'ziga ishonchni oshirish va kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirishga;

fikr-mulohazalarni ongli ravishda shakllantirish va ularni nutqda to'g'ri ifodalash qobiliyatini rivojlantirishga, ma'lumotni qayta ishlash va tizimlashtirish ko'nikmalarini oshiradi.

Adabiyotlar

1. Zunnunov A. Adabiyot o'qitish metodikasi. – Toshkent: «O'qituvchi», 1976.
2. Dolimov S. Adabiyot o'qitish metodikasi. – Toshkent: «O'qituvchi», 1978.
3. Rahimova G. Ona tilini o'qitish metodikasi. – Toshkent: «O'qituvchi», 1980.
4. Ismatov S. O'rta maktabning yuqori sinflarida insho. – Toshkent: «O'qituvchi», 1973.
5. Жўраев М. IV-VII синфларда ўқувчилар иншосининг турлари. // Ўзбек тили ва адабиётини ўқитиш методикасини такомиллаштириш масалалари. – Тошкент: УзПФТИ, 1983. 80-б.
6. Dadajonov A. Monologik nutq tiplari. // International scientific journal «Modern science and research». Volume 2/ ISSUE 6 / UIF: 8.2/ Modernscience.uz. 2023.
7. Karbayeva Q.T. Maktab adabiy ta'limida insho yozdirish, uni tekshirish va baholashning ilmiy-metodik asoslari. // Cientific progress. Volume 2. ISSUE 1. 2021. ISSN: 2181-1601.